

ZAMONAVIY DUNYODA NEYTRALITET KATEGORIYASINING AHAMIYATI

Alisher Nabiyeu

Zarved Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Neytralitet tushunchasi, uning tilshunoslikdagi o'rni va turli sharoitlarda ishlatilishi ushbu maqolada tahlil qilingan. Neytralitet tilning grammatik, semantik va pragmatik darajalaridan tashqariga chiqadigan aloqa xususiyatlariga ta'siri alohida misollar orqali namoyish etildi..

Kalit so'zlar: neytralitet, kommunikativ, lingvistik sath, pragmatik neytralitet, semantik neytralitet.

Tilshunoslikda neytralitet kategoriyasi kommunikativ-pragmatik sathda muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi axborot uzatish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Nutqiy neytralitet, asosan, uslubiy bevositalik, ekspressivlikning minimallashtirilishi va kontekstga mos ob'ektiv yondashuv bilan tavsiflanadi. Ushbu tushuncha pragmatikaning muhim jihatlaridan biri bo'lib, u til birliklarining qanday holatda neytral yoki pragmatik yuklangan holda qo'llanishini aniqlashga yordam beradi.

Neytralitet tushunchasi lingvistik pragmatika va kommunikativ jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, gaplovchining maqsadi, auditoriya va nutq sharoitiga qarab o'zgarishi mumkin. Ilmiy va rasmiy nutq uslublarida neytral leksik va grammatik vositalardan foydalanish ustuvor hisoblanadi. Bunday yondashuv axborotning aniq, tushunarli va bahosiz yetkazilishiga xizmat qiladi. Aksincha, badiiy, ommaviy yoki ekspressiv uslublarda nutqiy neytralitetdan chekinish kuzatiladi.

Neytralitet shuningdek, muloqot jarayonida muloqot ishtirokchilarining shaxsiy fikrlarini oshkor qilmasdan turib, axborotni ob'ektiv yetkazishga imkon beradi. Bu ayniqsa rasmiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, xabarlar va ensiklopedik matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot neytralitet tushunchasining tilshunoslikdagi o'rnini ochib berish, uning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlash va real nutqiy jarayondagi namoyon bo'lish shakllarini o'rganishga qaratilgan.

Tilshunoslikda neytralitet kategoriyasining tadqiqi lingvistik pragmatika, stilistika va kommunikativ lingvistika nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kategoriya asosan rasmiy, ilmiy va huquqiy matnlarda keng qo'llaniladi. Neytralitetni tavsiflovchi asosiy omillar qatoriga denotativ ma'no ustuvorligi, baholovchi komponentlarning minimallashtirilishi, ekspressiv vositalardan foydalanishning chegaralanganligi va muloqotning ob'ektivligini ta'minlash kiradi.

Tilshunoslikda neytralitet tushunchasi lingvistik pragmatika, stilistika va kommunikativ lingvistika doirasida keng tadqiq etilgan. Neytralitet muloqot jarayonida subyektivlikdan xoli bo'lish, baholash elementlarini minimallashtirish va obyektiv axborot taqdim etish tamoyillariga asoslanadi. Levinson pragmatika doirasida neytral nutqni kontekstga bog'liq holda axborotni uzatishning muhim shakli sifatida baholaydi. Uning fikriga ko'ra, neytral til birliklari xabar mazmunining to'g'ri talqin qilinishiga yordam beradi [1].

Searle nutq aktlari nazariyasida neytralitetni deklarativ nutq uslubining asosiy komponentlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, neytral ifodalar nutq egasi shaxsiy

fikr va emotsiyalarni cheklash orqali axborotning iloji boricha ob'ektiv taqdim etilishini ta'minlaydi [2]. Shuningdek, Wierzbicka neytralitetning madaniy va lingvistik jihatdan farqlanishini o'rganib, har bir til jamiyatida bu tushuncha turlicha talqin qilinishini ta'kidlaydi [3].

Neytralitet, ayniqsa, ilmiy, huquqiy va axborot matnlarida muhim rol o'ynaydi. Ilmiy maqolalarda neytral til birliklari obyektiv ilmiy baholarni ta'minlaydi, huquqiy matnlarda esa hujjatlarning aniq va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Shuningdek, pragmatik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, neytralitet axborotni muloqot ishtirokchilariga noxolisliksiz yetkazishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Neytralitetning dolzarbligi tilning ijtimoiy funktsiyalari va nutqiy faoliyat doirasida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, Grays neytral muloqotning kooperativ tamoyillari bilan bog'liq ekanligini, ya'ni samarali aloqa jarayonida ortiqcha ekspressivlikdan qochish muloqotning aniqligi va tushunarligini oshirishini ta'kidlaydi [4]. Xuddi shunday, Halliday funksional tilshunoslik nuqtayi nazaridan neytralitetni diskursdagi axborot oqimining mantiqiy va strukturaviy bog'liqligini saqlovchi omil sifatida baholaydi [5].

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, neytralitet kommunikativ kontekstga qarab har xil shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, rasmiy hujjatlar va ilmiy matnlarda neytral leksik birliklar ustuvor bo'lsa, jurnalistik matnlarda ular muayyan kontekst va maqsadga qarab ekspressiv birliklar bilan almashinishi mumkin. Demak, neytralitetning darajasi va shakli muloqotning turiga, auditoriyaga va kommunikativ maqsadlarga bog'liq holda o'zgarib boradi.

Neytral nutq va ekspressiv nutq tahlili shuni ko'rsatadiki, neytralitet muloqotning rasmiy va axborot beruvchi turida ustunlik qiladi. Misol uchun, ilmiy maqolalar va huquqiy matnlarda neytral leksik birliklarning qo'llanilishi informativlik va ishonchlilikni oshiradi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, ilmiy maqolalarda neytral tildan foydalanish darajasi 85% ni tashkil etadi, huquqiy matnlarda esa bu ko'rsatkich 92% ga yetadi.

Badiiy adabiyot va publitsistik matnlarda neytralitetdan chekinish kuzatiladi, chunki bunday matnlar ko'proq emotsional ta'sir ko'rsatish va o'quvchini jalb qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ekspressiv til unsurlari yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda qahramonlar o'rtasidagi muloqot hissiy boyitilgan, ularning ichki kechinmalari tasvirlangan. Masalan, Otabek va Kumush o'rtasidagi sevgi izhori neytral tildan foydalanilgan. Hamda roman chuqur hissiyot uyg'otish uchun poetik vositalardan foydalaniladi.

Shuningdek, OAVda neytral va ekspressiv uslubning farqi yaqqol seziladi. Masalan, yangiliklar agentliklari (BBC, Reuters) xabarlarida neytral tildan keng foydalanadi, chunki axborotni aniq va xolis yetkazish muhim sanaladi. Biroq, tahliliy maqolalarda yoki bloglarda subyektiv fikrlar va ekspressiv ifodalar uchrashi mumkin.

Xulosa. Tilshunoslikda neytralitet kategoriyasi kommunikativ-pragmatik sathda muhim ahamiyat kasb etib, muloqot jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Neytral uslub axborotning aniq va ishonchli yetkazilishiga imkon berishi sababli, ilmiy, rasmiy va huquqiy matnlarda asosiy tamoyillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, neytralitet kategoriyasi tilshunoslikdagi muhim kommunikativ omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Levinson, S. C. Pragmatics. Cambridge: Cambridge University Press. 1983. - 438 p.
2. Searle J. R. A classification of illocutionary acts. Language in Society, 1976, 5: 1–23.
3. Wierzbicka, A. Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. New York: Mouton de Gruyter. 1991.- 502 p.
4. Grice H. P. Logic and conversation // P. Cole, J. Morgan (eds.). Syntax and Semantics, Vol 3: Speech Acts. New York: Academic Press, 1975. P 41—58.
5. Halliday, M. A. K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. London: Edward Arnold. 1994 - 700 p.